

**TEMURIYLAR DAVLATI IQTISODIY, SIYOSIY, IJTIMOIY  
SIYOSATINING AHAMIYATI.**

*Angren shahar*

*30-umumiyl o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

***Yusupova Gulchehra Abdurahmonovna***

***Gulchehrayusupova54@gamil.com***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning hayoti hamda yaratgan davlati haqida bat afsil ma'lumotlar berilgan. Amir Temurning shajarasini hamda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy siyosati keltirilgan.

Amir Temurning davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqa xususida o'z tuzuklarida bat afsil bayon etilgan. Umuman olganda, Sohibqiron Amir Temur sultanati aniq va puxta ishlangan tizimga muvofiq faoliyat yuritgan.

**Kalit so'zlar:** Movarounnahr, ma'naviyat, iqtisodiyot, siyosat, siyosat, etnografiyasi, jug'rofiya, diplomat.

**Kirish:** Amir Temur, yoki Tamerlan, 14-15 asrlarda O'rta Osiyoda g'olib kelgan vaqtining eng namoyon shaxsiyati bo'lib, uning davlati esa yirik va qudratli sultanat sifatida ifodalangan. Temuriylar davlati Movarounnahr va Xorazmda vujudga keldi va 1380-1402 yillarda Eron, Iraq, Oltin O'rda, Turkiya, Ozarbayjon va Hindistonning shimoliy qismigacha yoyildi. U, barcha turkiy qavmlarni yagona sultanatga birlashtirishni xayol qilgan va katta g'ayrat bilan mamlakat iqtisodiy va harbiy qudratini oshirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi. Bu faoliyatlar esa Temuriylar sultanatini dunyodagi eng kuchli davlatlardan biriga aylantirdi.

Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lida o'z faoliyati XIV asrning 60-yillaridan boshlandi. U davrning boshida mamlakatda parokandalik boshlangan, ammo unga yaqin mustaqil bekliklar o'rnatilgan. Chag'atoy ulusining sharqiy qismi, Ettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrning og'ir siyosiy vaziyatidan foydalandilar, lekin Amir Temurning sarkardalik qobiliyati va qiyin vaziyatlarda to'g'ri yo'lni topa olishi o'z samarasini berdi. Hokimiyatparast chingiziy beklarga qarshi janglar yakunida, 1370 yilning 11 aprelida u Movarounnahr amiri bo'ldi.

U o'z poytaxti bo'lmish Samarqandni er yuzining chinakam madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylantirdi. Bu ulug' zot qurdirgan me'morchilik va xalq

san’atining javohirlari yanglig‘ bugungacha qad ko‘tarib turgan osori atiqalar shahar va qishloqlarimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib kelyapti. Sohibqiron zamonasining ajoyib diplomati, davlatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlар o‘rnatalishi va iqtisodiy aloqalar rivojlanishining tarafdoi sifatida ham mashhur edi. U olimlar va hokimlar, me’morlar va shoirlarning buyuk homysi yanglig‘ dong chiqargan». Bugungi kunda demokratik huquqiy davlat qurayotgan xalqimiz Vatanimiz tarixida huquqiy davlat haqidagi tasavvur va qarashlarning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi, uning yuridik manbalari, dunyoviy huquq va qonunchilik masalalarini ham bilishni istaydi, albatta. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, Temur tuzuklarini tarixiy-huquqiy tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, o‘tmish merosimiz, uning boy davlatchilik va huquqiy asoslari, xususan, Amir Temur davrida davlat va huquq borasida qo‘llanilgan adolatlari tamoyillar bugungi kunda mustaqilligimizga ham xizmat qilib, shaxsning yuksak siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishda ko‘maklashmoqda. Amir Temur hayoti va faoliyatini yorituvchi asosiy tarixiy manbalar benihoya ko‘p va xilmaykil bo‘lib, bu uning nomi, jahon tarixidagi roli beqiyos ekanligi va g‘oyat mashhurligidan dalolat beradi.

### **Adabiyotlar tahlili:**

Temurning ijtimoiy-siyosiy tamoyillari tizimini yanada batafsilroq bayon qilsak, quyidagi manzara hosil bo‘ladi:

1. Amir Temur iqtisodiyotni har qanday saltanat poydevori, deb tushungan. «Davlatu saltanat – deb ta’kidlaydi, Temur o‘zining «Tuzuklari»da, – uch narsa bilan – mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir». Bu bilan Temur davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi.
  2. Amir Temuring qarashlariga ko‘ra, har bir mamlakat, turli xil iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha mintaqalar «xususida to‘la ma’lumotlarga ega bo‘lishi va ularning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishi» lozim.
  3. Amir Temur asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan er egaligiga katta e’tibor qildi va har bir viloyatni idora qilishda davlat, vaqf, xususiy er egaligi tartiblarini saqlab qoldi va bunga er maydonining miqdori, egalik huquqini davlat manfaatini ko‘zda tutib, o‘zgartirishga harakat qildi.
  4. Temur mehnatning yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutib, uni ijtimoiy qadriyat, deb tushundi.
  5. Amir Temur iqtisodiy tamoyillari tizimida moliya masalalariga katta e’tibor bergen. Chunki moliya Temur nazarida davlatning iqtisodiy tayanchi hisoblangan.[1]
- Amir Temuming hayotlik vaqtida davlat boshqaruvi haqida so‘zlovchi “Temur tuziklari” nomli maxsus asar yozilgan. Asar ikki qismidan iborat bo‘lib, O‘rta asming bebafo tarixiy manbasi hisoblanadi. Unda Temuming hayotiy voqealari bilan bog‘liq tarjimai xoli, atoqli davlat arbobi va sarkardaning harbiy san’atga bo‘lgan nuqtai nazari, davlat tuzilishi vaboshqaruvi kabilar bayon qilingan.

Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan, kuchli boshqaruvga ega davlat ushbu beba ho qoidalar majmuasi hisoblanmish kitob asosida yaratilgan. "Tuzuk" so'zining lug'aviy ma'nosi qonun-qoidalar to'plami, nizom, degan ma'nolami anglatadi. Boshqacha aytganda, tuzuk — konstitutsiya ya'ni davlatning Asosiy qonuni. Shu ma'noda "Temur tuzuklari" Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lib, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga shariat qonunlari bilan bir qatorda kuchli ta'sir o'tkazgan. [2]

Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida xalqimizning toptalib kelgan milliy g'ururini yuksaltirish, Sohibqiron bobomizning muborak nomi, tarixiy siyoshi, boy merosi va xotirasini tiklash yo'lida mamlakatimizda qo'yilgan qutlug' qadamlar to'g'risida batafsил hikoya qilingan. 1996 yil O'zbekistonda "Amir Temur yili" deb ataldi. YUNESKO qarori bilan Sohibqiron tavalludining 660 yilligi butun dunyo bo'ylab nishonlandi. [3]

«Sohibqiron» so'zining arabcha «saodatli, zafarli, g'olib» ma'nolari bor. Ilmi nujum (astrologiya)da va afsonalarda Zuhra (Venera) – do'stlik va mehru muhabbat tug'yonlarini in'om aylaguvchi, Mushtariy (Yupiter) – omadu iqbol, muzaffariyat shodiyonalar sayyorasi deb ta'riflanadi. Shu ikki sayyoraning bir burjda uchrashgan vaqt saodatli lahzalardur, uni qiron deydilar, shunday vaqtida tug'ilgan bola o'sha qiron sohibi hisoblanadi. Bunday bolaning baxtli, ulug' martabalar egasi bo'lishi oldindan bashorat etiladi. Sharq mamlakatlarida hukmdorlarga beriladigan sharaflı unvon. Amir Temur Ko'ragon ham shu unvonga musharraf bo'lgan. [4]

Sohibqiron Amir Temur davri tarixini to'liq va ishonarli yoritib bergen Sharafiddin Ali Yazdiyning fundamental "Zafarnoma" (1425) asari Sohibqironning nabirasi, Sheroz hokimi, shoir va xattot Ibrohim Sultonning rahbarligi, fidoyiligi va homiyligi ostida dunyoga keldi. 1519-yilda Ulug'bek Mirzoning nabirasi Ko'chkunchixon topshirig'iga bilan mazkur "Zafarnoma" va Rashiduddinning "Jome ut-tavorix" asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Qolaversa, jahon adabiyotining buyuk namoyandalaridan hisoblangan Alisher Navoiyning ijodi, Lutfiy va Husayn Boyqarolar she'riyati, allomalar Qozizoda Rumiy va Ali Qushchi asarlari, Kamoliddin Behzodning durdona miniatyura rasmlari, Zahiriddin Muhammad Boburning beba ho "Boburnoma"si, go'zal she'riyati, ilmiy asarlari, muarrixlar G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Hafizi Abro', Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamirlarning solnomalari – barcha-barchasi temuriylar davrining mahsulidir.

[5]

Amir Temur, ko'p mashhur muarrixlar ta'kidlaganlaridek, ilmnning qadriga yetadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bog'lagan, dunyoning eng yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol suhbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi. Ilm-fanga

qiziqish Amir Temurning xonadonidan boshlangan edi, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Sohibqiron xonadonida farzandlar (shahzodalar, malikalar)ga ilm-fanning turli sohalaridan ko‘p saboqlar berilar, madrasalarda tahsil olishlar davom ettirilardi. Masalan, Mironshoh Mirzo uchun maxsus ibn al-Asirning "Al-komil fi-t-tarix" (Mukammal tarix) kitobi tarjima qilib berilgan edi. Sohibqiron harakatlari tufayli uning avlodlari ichida Muhammad Sulton, Ulug‘bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ko‘chkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, homiyalar, ma’naviyat va ma’rifat jonkuyarlari bor bo‘lib, ular ilm-fan, ma’naviyatning qadriga yetadigan ajoyib insonlar bo‘lib yetishdi. Ularning sa’y-harakatlari bilan madaniyatimiz yuksak darajalarga erishdi. Misol uchun, Ulug‘bek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratildi. Zamonaning ilg‘or rasadxonasi barpo etildi. 1018 ta yulduz ta’rifini o‘z ichiga olgan "Ziji jadidi Ko‘ragoniy" jadvali jahon faniga ulkan hissa bo‘lib qo‘sildi. "To‘rt ulus tarixi" asari esa xalqimiz tarixini anglab yetishda katta ahamiyatga ega.

[6]

Temurning siyosiy tamoyili markazida inson turadi. Temur o‘z davrida sultanat manfaatini xalq manfaatiga bo‘ysundira olgan davlat rahbari edi. Temur siyosiy qarashlari tizimining yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u har bir siyosiy masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlari bilan maslahatlashib, so‘ngra qaror qilar edi. Uning olimlar bilan qiladigan maslahatlari turli shakl va darajada bo‘lardi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, XIV-XV asr mutafakkirlari o‘z ijodlari va g‘oyaviy karashlarida adolatli va ma’rifatparvar shohning eng oliy sifati qilib, birlari adolatni ko‘rsatsalar, boshqalari aqlni, uchinchi toifadagilar esa - axloqiy sifatlarni ko‘rsatganlar. Shunisi qiziqarlik, agar ular o‘zlarining «Ideal davlat» nomli g‘oyaviy xayolotini nazariy jihatdan ta’riflagan bo‘lsalar, XIV asrga kelib, Amir Temur uni amalda qo‘llay oldi va o‘zida buxislat va xususiyatlarni mujassamlashtirgan adolatli hukumdar sifatida maydonga chiqdi. O‘z saltanati siyosatini tasavvuf asosiga qurgan Temur adolat bayrog‘ini baland ko‘tarib, xalqni quruq qonun-qoidaga emas, balki insoniy tartib-intizomga bo‘ysunishga chaqirgan. Chunki Temur insoniy tartib-intizomga ilohiy tus berib, uni muqaddas deb biladi va shuning uchun ham yomonlikni maqsad qilgan kishilarni jilovlovchi va yaxshilik yo‘lida jafo chekuvchilarni quvvatlovchi har qanday podsho va hokimga bo‘ysunish kerak, deb hisoblaydi.[7]

### **Tahlil va natijalar:**

Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburda jismonan kuchlilik, yuksak harbiy qobiliyat, sarkardalik mahorati, davlat boshqaruvida tadbirkorlik bilan ish tutish, axloqan va ma’nab barkamollik kabi mushtarak jihatlar ko‘p bo‘lgan. O‘sha paytlarda harbiylarning kuchini belgilaydigan mezon, bu jangga kiradigan barvasta otni musht urib gandiraklata olish bo‘lgan. Amir Temur ham, Zahiriddin Muhammad

Bobur ham shunday kuch-quvvatga birdek ega bo'lishgan. Shuningdek, ayollarga munosabatda ham ikki hukmdor e'tiborli, izzat-hurmatli, ayni paytda mehr-oqibatli bo'lishgan. Amir Temurning Saroymulkxonim maslahatlariga qulq solib ish tutishi, farzandlari va nabiralari tarbiyasini Bibixonimga ishonib topshirganligi tarixdan ma'lum.

Doimiy harbiy yurishlar, sarson-sargardonliklar, o'zga yurtda yashash bilan bog'liq ma'naviy va ruhiy zo'riqishlar, Ibrohim Lo'diy onasining zaharlashi, taxt vorisi bo'lmish Humoyunning og'ir betob bo'lib qolishi, yangi tug'ilgan o'g'li Anvar Mirzoning to'satdan vafot etishi kabi ko'pdan-ko'p omillar tufayli Zahiriddin Muhammad Boburni umrining so'nggida podshohlik ishlari qiziqtirmay qolgandi. Zahiriddin Muhammad Bobur tushkunlikka tushib qolgan, u vafoti oldidan Agradagi o'zi qurdirgan "Zarafshon" bog'idan chiqmay tanholikda yashaydi.

Amir Temurning davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqa xususida o'z tuzuklarida batafsil bayon etilgan. Umuman olganda, Sohibqiron Amir Temur sultanati aniq va puxta ishlangan tizimga muvofiq faoliyat yuritgan.

Amir Temur soliq siyosatini oldingi davrlarda yig'ilgan qonun-qoidalarni har tomonlama o'rganib va Islom dini tavsiyalariga amal qilgan holda, shuningdek, o'z davrining xususiyatidan kelib chiqib olib bordi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan Markaziy Osiyoda davlat tomonidan undirilgan yer solig'i xiroj deb yuritilgan.

Tarixda o'tgan buyuk shaxslarimiz, ayniqsa, Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo'la oladi. Uning har qanday mushkul siyosiy, harbiy, diplomatik vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi, topqirligi, temir irodaviy xususiyatlari avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, vatanga xizmat qilish namunasi bo'lib qolishi lozim. Endigi gap ana shunday bemisl va betakror, butun jahon e'tirofiga sazovor bo'lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan vak madaniyat homiysi sohibqiron Amir Temurning hayotini chuqr va zehn bilan o'rganishda qolgan. Yoshlarimiz uni qanchalik mukammal o'rgansalar, undan shunchalik saboq oladilar. O'zbekistonning sobitqadam, jasur, aql-idrokli ona vatan qudratini jahonga ko'z-ko'z qilishga qodir va xos fidoiy farzandlari bo'lib etishadilar.[8]

Amir Temur davrida Buxoroda saroylar, masjidlar, xonaqohlar, savdo rastalari va boshqa imoratlar qad ko'taradi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Buxoro katta savdo-sotiq markaziga aylandi. Buxoroda bu davrda ko'plab ariqlar chiqarildi. Ayniqsa shaharning atrofini o'rab olgan Shohrud arig'inining qayta tiklanishi, shahar aholisining obi-hayotga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga xizmat qildi. Ma'lumki shahardagi

mashhur ariq mo‘g‘ullar hujumi davrida buzib tashlangan edi. Amir Temur davrida nafaqat Buxoro shahri, balki butun voha obodonlashtirildi.

Amir Temur farmoyishi bilan Samarqandda yurtimiz tarixi, etnografiyasi, jug‘rofiyasi kabi fanning turli sohalarini qamrab olgan kutubxona tashkil etilgan. Kutubxonani ko‘rish uchun taklif etilgan Amir Temurga, kutubxonani boshqaradigan kitobdorni tavsiya qilishni so‘raganlarida, uzoq o‘ylab turmasdan bunday kitobsevar insonni Buxorodan topish mumkinligini aytganliklari ham Amir Temurning Buxoro va Buxoroliklarni kitobsevar insonlar sifatida ulug‘laganlarining yorqin dalilidir. Amir Temur o‘z saroyining kutubxonasiga kitobdor sifatida Mavlono Orif Buxoriyni tayinlagan va unga qat’iy ishonch bildirgan. [9]

Hazrat Sohibqiron shu vaqtning o‘zida vaziri a’zamni chaqirtirib, kutubxona va kitoblar xususida unga qator topshiriqlar berdi. Amir Temur so‘ngra kitobdorga qarata “Siz mavlono kutubxona to‘g‘risida ne fikr bo‘lsa, tortinmay kelib aytинг. Kitob, taqsirim beba ho xazina. Yer qimirlab qasrlar qulab tushishi, azim shaharlar bir zumda yo‘q bo‘lib ketishi mumkin, nahrlar izdan chiqib qurib qolish hollari ham bo‘lg‘on, xazinani qaroqchi olib ketib, davlat bir fulussiz qolishi ham mumkin. Alarni vaqt bilan tiklab olsa bo‘lur. Ammo kitob yo‘q bo‘lib ketsa, uni hech qachon tiklab bo‘lmaydur. Biz kutubxona xususida yana bafurja o‘ylab ko‘rurmiz”, – deya ta’kidlaydi. Naqadar oltin fikrlar aytilganidan kitobdor ham mamnun edi. Kitobdor o‘z faoliyatida Amir Temurning bu ko‘rsatmalariga amal qildi.



Yuqorida Amir Temur asos solgan davlat xaritasi ko‘rsatilgan. [9]

Amir Temur tarix sahifalarida Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorda turadi. Amir Temur – insoniyat tarixidagi eng qat’iyatlari

shaxslardan biridir. Turli manbalarga tayangan holda u haqidagi bilimlarimizda ham hukmdor, zabit, sarkarda, ham jangchi sifatida gavdalanadi. O‘z davlatining kuchqudratini oshirib, uni mustahkamlash uchun Amir Temur davlatining boshqa davlatlarga o‘xshab o‘z ramzlari – davlat bayrog‘i, gerbi va mamlakatning madhiyasi mavjud bo‘lgan. Bu davlat bayrog‘iga moviy osmon, butun koinotga ta’sir qiluvchi quyosh va hayvonlarning eng qudratlisi sher suratini aks ettirgan. Alloh yaratgan eng buyuk mo‘jiza quyoshdir. Quyosh hammaga rizq-ro‘z ulashadi. Shuning uchun nur sochib turgan quyosh ramzi bayroqda asosiy o‘rin tutgan. Amir Temur ovni yoqtirgan, hayvonlarning qudratlisi sher unga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Moviy osmon esa beg‘uborlik, tiriklik ramzi sifatida qabul qilingan. Davlat bayrog‘ini maxsus bo‘linma jangchilari qo‘riqlashgan. Jang paytida bayroq eng baland joyda hilpirab turgan. Bayroqning yiqtilishi, dushman tomonidan qo‘lga kiritilishi mag‘lubiyat hisoblangan.

### **Xulosa va takliflar:**

Tarix har bir insonni o‘z vataniga muhabbat, sadoqat, o‘z xalqining o‘tmishi qaqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uning hozirgi kuni va kelajagi bilan g‘ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Shu boisdan Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganish va tahlil qilish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Tarix har bir insonni o‘z vataniga muhabbat, sadoqat, o‘z xalqining o‘tmishi qaqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uning hozirgi kuni va kelajagi bilan g‘ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Shu boisdan Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganish va tahlil qilish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Amir temurning davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlari Jumanazar Xayitbayevich Adambayev
2. Temur tuzuklari. Ahmedov B. tahriri.- Toshkent: G‘afur G‘ulom, - 1991.-144 b.
3. „Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” Toshkent Ma’naviyat 2008.
4. © 2016-2024 – [www.temurtuzuklari.uz](http://www.temurtuzuklari.uz)
5. Ali Yazdiyning fundamental "Zafarnoma" (1425) asari
6. Muiniddin Natanziy. Muntahab at- tavorix. –Toshkent, 1991.-260 b.
7. Amir temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi konferensiya to’plami
8. Herman Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”. Toshkent: G‘.Gulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1990
9. [Amir](#) Temur davlati xaritasi